



Psixologiya fanining pedagogik jarayonlar bilan bog'liqligi

Nekvoyeva Sitara Rajab qizi

Muzrabot tumani Bog'i eram mahallasi 38-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limiy jarayonlarning psixologik asoslari borasidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, ta'lim, pedagogik jarayonlar, bilimlar pedagogik psixologiya.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamon insonlarning bilimli, aql-idrokli bo'lishini va bilimlarni puxta egallashi kerakligini talab qilmoqda. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik jarayonlarning samarali kechishi uchun ta'limning psixologik asoslarini bilish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda pedagogik psixologiya atamasiga murojaat qilamiz. Xo'sh pedagogik psixologiya nima o'zi?

Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shart-sharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek,



o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi.

Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixologiyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv material mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Pedagogik - psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta.

Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o'zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta'lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o'z ustida ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, yosh o'qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoat-chilik e'tiboriga havola qilinishi, ota-onalar, tarbiyachi va o'qituv-chilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va tele ko'rsatuvlarda, jurnallarda, ma'ruza va maxsus ko'rsatuvlar orqali chiqish, mahalla, maktab va ota-onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi. Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyir psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana



shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz. Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiy psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi. Qaysi metoddan foydalanishdan qa'ti nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'limtarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir. Ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim. Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida psixologiya o'rni quyidagilarda o'z aksini topadi.

1. O'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib ko'rib, bilim olish, tajribalar to'plash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini, ya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olish.
2. Ta'lim oluvchilarning bilim ko'nikma va malakalarni egallashdagi tezligi va sifati
3. O'quvchilarning dars jarayonlariga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqi
4. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatgichlari

Yuqorida keltirib o'tilgan jarayonlar o'zaro pedagogika va psixologiya fanlarini chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixokorreksion trening mashg'ulotlar xulqi o'g'ishgan o'quvchilar bilan psixologik korreksion-rivojlantiruvchi treninglar/ A.Abdullayev Toshkent 2017



2. 10. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent. 2002.
3. 11. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.:O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
4. 12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010-yil
5. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
6. Xasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug'at. – T., 2008.